

## CONSTITUTIONAL AND PROCEDURAL FOUNDATIONS AND LIMITS OF APPLYING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES TO DIGITAL FORENSICS

**Shorasulova Gulnoza Shovkat qizi**

Master's student in Cyber Law

Tashkent State University of Law, Uzbekistan

G-mail: [gulnozashorasulova@gmail.com](mailto:gulnozashorasulova@gmail.com)

**Abstract:** This thesis provides a comprehensive analysis of applying artificial intelligence technologies, as established in the Concept approved by Presidential Resolution PQ-155 of 30 April 2025, to digital forensics from the perspective of the 2023 Constitution and the Criminal Procedure Code amended by Law No. o'RQ-1003 of 21 November 2024. The scientific novelty consists in classifying, for the first time in national jurisprudence, the seven technological directions of the Concept according to constitutional risk levels, with a legal regime proposed for each based on the new provisions of the CPC (Articles 81, 87, 88, 95<sup>1</sup>, 204<sup>1</sup>, 204<sup>2</sup>). Three hypotheses are tested: the inequality of constitutional risk levels of AI directions, the emergence of five constitutional conflicts from AI application, and the possibility of adapting the national legal framework by 2030. According to our analysis, Part 4 of Article 95<sup>1</sup> of the CPC (new edition) serves as a concrete legal anchor for establishing the regime of AI-based evidence.

**Keywords:** artificial intelligence, digital forensics, Constitution, Article 95<sup>1</sup> CPC, presumption of innocence, lawful evidence, algorithmic transparency, PQ-155 Concept.

RAQAMLI KRIMINALISTIKAGA SUN'IY INTELLEKT  
TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISHNING KONSTITUTSIYAVIY-  
PROTSESSUAL ASOSLARI VA CHEGARALARI

**Shorasulova Gulnoza Shovkat qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Kiber huquqi mutaxassisligi magistranti, O'zbekiston

G-mail: [gulnozashorasulova@gmail.com](mailto:gulnozashorasulova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi PQ-155-son qarori bilan tasdiqlangan konsepsiyada belgilangan sun'iy intellekt texnologiyalarining raqamli kriminalistikaga tatbiq etilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonun bilan o'zgartirilgan Jinoyat-protsessual kodeksi nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi - milliy qonunchilikda konsepsiyaning yetti texnologik yo'nalishi konstitutsiyaviy xavf darajasiga ko'ra tasniflanib, har biri uchun JPKning yangi normalari (81-, 87-, 88-, 95<sup>1</sup>-, 204<sup>1</sup>-, 205<sup>2</sup>- moddalar) asosida huquqiy rejim taklif etilganligidir. Tadqiqotimiz uchta asosiy ilmiy gipoteza atrofida qurilgan: (a) PQ-155 konsepsiyasidagi SI yo'nalishlari konstitutsiyaviy xavf darajasi bo'yicha bir-biridan sezilarli farq qiladi, (b) ushbu texnologiyalarning huquqni muhofaza qilish faoliyatiga tatbiqi beshta konstitutsiyaviy beshta konstitutsiyaviy ziddiyatni (aybsizlik prezumpsiyasi, qonuniy dalillar prinsipi, shaxsiy hayot dahlsizligi, xabarlar maxfiyligi, shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi) yuzaga keltiradi, (v) milliy huquqiy ramka ushbu chaqiriqlarga proaktiv moslashtirilishi mumkin. Olib borilgan tahlil natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, JPKning 2024-yilda yangi tahrirda kiritilgan 95<sup>1</sup>-moddasi to'rtinchi qismi sun'iy intellekt yordamida olingan dalillarning huquqiy rejimini belgilash uchun aniq protsessual asos, o'ziga xos huquqiy lemma sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, raqamli kriminalistika, Konstitutsiya, JPK 95<sup>1</sup>-modda, aybsizlik prezumpsiyasi, qonuniy dalillar, algoritmik shaffoflik, PQ-155 konsepsiyasi.

XXI asrning birinchi choragi insoniyat tarixida texnologik metamorfoza davri sifatida qayd etilmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) va prediktiv tahlil texnologiyalari nafaqat texnologik, balki konstitutsiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Sud, prokuratura va tergov organlarida SI ga asoslangan tizimlarning qo'llanilishi inson huquqlari va erkinliklarining samarali himoyasi bilan bog'liq fundamental masalalarni ko'taradi. Fikrimizcha, bu masalalar shu darajada chuqurki, ularni hal qilmasdan turib SI ni huquqiy organlarda keng joriy etish sud protsessining adolatli kechishiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi PQ-155-son qarori bilan tasdiqlangan konsepsiya Markaziy Osiyo mintaqasida SI ni huquqni muhofaza qilish sohasiga tatbiq etish bo'yicha birinchi yagona strategik hujjat hisoblanadi. Tahlilimizga ko'ra, konsepsiya yetti texnologik yo'nalishni belgilab bergan, ammo har bir yo'nalishning konstitutsiyaviy huquqlar va protsessual normalar bilan o'ziga xos munosabati e'tirof etilmagan.

Tadqiqotimizning dolzarbligi to'rt asosiy omilga asoslanadi. Birinchidan, 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari himoyasini sezilarli darajada kengaytirgan. Bular 31-modda (shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxsiy sirga ega bo'lish, yozishmalar, telefon, pochta, elektron hamda boshqa xabarlar sir saqlanishi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, noto'g'ri ma'lumotlarni yo'q qilishni talab qilish huquqi) da va boshqa bir qancha moddalarda o'z aksini topgan (Konstitutsiya, 2023, 31, 32, 33-moddalar). Mazkur yangi konstitutsiyaviy normalarning SIga asoslangan kriminalistika bilan munosabati hali milliy doktrinada to'liq o'rganilmagan. Ikkinchidan, 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonun bilan JPKga raqamli dalillar institutini huquqiy mustahkamlovchi yangi moddalar kiritilgan. Bu esa SIga asoslangan dalillar uchun protsessual ramka shakllantirish imkonini beradi. Uchinchidan, Yevropa Ittifoqida 2024-yil 13-iyunda

qabul qilingan AI Act xalqaro huquqshunoslikda algoritmik adolat masalasini yangi bosqichga olib chiqdi. To‘rtinchidan, SI texnologiyasining “qora quti” (black-box) tabiati Konstitutsiyaning 28-moddasida ko‘rsatilgan aybsizlik prezumpsiyasi va 29-moddasidagi qonuniy dalillar prinsipi bilan bevosita ziddiyatga kirishishi mumkin. Mazkur ziddiyatning mexanizmi quyidagicha namoyon bo‘ladi: chuqur o‘rganishga asoslangan SI tizimlari xulosa qilish, qaror qabul qilish mantig‘ini odam tushunadigan tarzda tushuntira olmaydi, demak sudlanuvchi mazkur dalilni samarali ravishda mantiqiy jihatdan tekshira olmaydi va undan o‘zini himoya qila olmaydi. Bu 28-moddaning birinchi qismida belgilangan “o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanadi” kafolatiga bevosita zarar yetkazadi. Shu bilan birga qonuniy dalil ilmiy uslub mezonlarini, ya’ni takrorlanuvchanlik, izohlanuvchanlik, tekshiruvchanlik, xato darajasining ma’lumligi ta’minlashi shart. Ammo “qora quti” bu mezonlarning hech birini to‘liq qondira olmaydi.

Tadqiqotning maqsadi - PQ-155 konsepsiyasidagi SI texnologiyalarining raqamli kriminalistikaga tatbiq etilishining konstitutsiyaviy va protsessual nuqtai nazardan chegaralarini aniqlash hamda maxsus huquqiy rejimning konseptual asoslarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning maqsad va vazifalarini hal etish, shuningdek, belgilangan ilmiy farazlarning to‘g‘riligini isbotlash uchun umumilmiy va maxsus huquqiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Xususan, dialektik usul sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlash o‘rtasidagi ichki ziddiyatlar, qonuniyatlar va transformatsiya jarayonlarini aniqlashda, qiyosiy-huquqiy usul Yevropa Ittifoqining Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi reglamenti, AQSh sud amaliyoti hamda O‘zbekiston Respublikasi milliy huquq tizimi o‘rtasidagi o‘zaro mosliklar, farqlar va ilg‘or jihatlarni baholashda, tizimli-strukturaviy tahlil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-155-sonli qarori bilan tasdiqlangan

Konsepsiyaning yetti asosiy yo‘nalishini konstitutsiyaviy huquqlar va jinoyat-protsessual normalar bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikda kompleks tahlil qilishda, ssenariyli modellashtirish usuli raqamli kriminalistika va sun’iy intellekt tizimlarining kelajakdagi rivojlanish variantlarini, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy risklarni ilmiy bashorat qilishda, yuridik-konstruktiv usul esa milliy qonunchilikni takomillashtirish doirasida yangi raqamli huquqiy rejim elementlarini va konseptual normalarni taklif qilishda qo‘llanildi. Tadqiqotning empirik bazasini hamda normativ-amaliy asoslarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil tahriri), O‘RQ-1003-sonli Qonun (2024) bilan tizimli o‘zgartirishlar kiritilgan Jinoyat-protsessual kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-155-sonli qarori (2025) kabi milliy qonunchilik hujjatlari kompleks tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro huquqiy makon va xorijiy tajribani o‘rganish doirasida Yevropa Ittifoqining Sun’iy intellekt bo‘yicha akti, AQSh sud amaliyotida algoritmlar va prediktiv tahlil bo‘yicha pretsedent hisoblangan mashhur “*Wisconsin v. Loomis*” sudyalik ishi materiallari hamda raqamli kriminalistika sohasida xalqaro standartlarni belgilovchi “*INTERPOL AI Toolkit*” (2023) uslubiy qo‘llanmasi empirik manba sifatida tahlilga torildi.

Tahlilimizga ko‘ra, o‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi SI va raqamli kriminalistika integratsiyasi uchun ikki tomonlama himoya ramkasini yaratadi. Birinchi tomondan, davlatga inson huquqlarini himoya qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlash majburiyatini yuklaydi. 19-moddada inson huquqlari xalqaro huquq normalariga muvofiq e’tirof etilgan va kafolatlangan, 21-moddada esa huquqlarning faqatgina qonun doirasida cheklanishi mumkinligi belgilangan (Konstitutsiya, 2023, 19, 21-moddalar). Ikkinchi tomondan, shaxsiy huquqlarini himoyalovchi qattiq kafolatlarni belgilaydi. Buni biz 26-modda (sha’n va qadr-qimmat daxlsizligi), 27-modda (erkinlik va shaxsiy daxlsizlik), 28-modda (aybsizlik prezumpsiyasi), 31-modda (shaxsiy hayot,

xabarlar, ma'lumotlar va uy-joy daxlsizligi)larda ko'rishimiz mumkin. SI texnologiyalarining huquqiy rejimi aynan shu ikki tomon o'rtasidagi muvozanatda shakllantirilishi kerak. Konstitutsiyaviy asosdan tashqari, SI integratsiyasi uchun ikkinchi huquqiy poydevor 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ - 1003-sonli Qonun bilan o'zgartirilgan Jinoyat-protsessual kodeksidir. Mazkur qonun bilan JPK ga raqamli dalillar institutining quyidagi normalari kiritildi va tahrirlandi:

- JPK 81-moddasining yangi tahriri - dalillarning turlari endi rasmiy ravishda "ashyoviy, yozma va raqamli dalillar" ni qamrab oladi (JOK, 2024, 82-modda 2-qism);

- JPK 87-moddasiga kiritilgan o'zgartirish - dalillar to'plash usullariga "taqdim etilgan ashyolarni, hujjatlarni va elektron ma'lumotlarni qabul qilish" qo'shilgan (JPK, 2024, 87-modda 1-qism);

- JPK 88-moddasining 5-qismi - elektron ma'lumotlarni olib qo'yish va saqlash tartibini belgilaydi;

- JPK 95<sup>1</sup>-moddasining 4-qismi (yangi norma) - mutaxassis ishtirokisiz olingan elektron ma'lumotlar nomaqbul deb topiladi;

- JPK 204<sup>1</sup>-moddasi (yangi norma) - elektron ma'lumotlar tushunchasini va ularni qabul qilish tartibini belgilaydi;

- JPK 204<sup>2</sup>-moddasi (yangi modda) - raqamli dalillar tushunchasini va ulardan ko'chirma nusxa olish qoidalarini belgilaydi.

- JPK 205-moddasining yangi tahriri - ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni olish usullarini birlashtirilgan tarzda belgilaydi (JPK, 2024, 81, 87, 88, 95<sup>1</sup>, 204<sup>1</sup>, 204<sup>2</sup>, 205-moddalar).

Fikrimizcha, PQ-155 konsepsiyasi va JPKning yangi normalari bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega bo'lsa-da, ammo ularning o'rtasida to'liq muvofiqlik ta'minlanmaganligi sababli, amaliyotda parallel ravishda rivojlanayotgan ikki xil huquqiy qatlamni shakllantirmoqda. Konsepsiya texnologik imkoniyatlarni belgilaydi,

JPK esa protsessual rejimni o'rnatadi. Ammo ular o'rtasida hozircha muvofiqlashtiruvchi maxsus norma yo'q. Shu tufayli bu bo'shliq aynan mazkur tezisning markaziy muammosi sifatida o'rganiladi. Tadqiqotlar orqali konsepsiyaning 9-bandida belgilangan yetti texnologik yo'nalish konstitutsiyaviy xavf darasiga ko'ra uchta toifaga ajratildi (1-jadval).

**1-jadval. PQ-155-sonli qaror konsepsiyasida belgilangan ustuvor  
yo'nalishlarning konstitutsiyaviy prinsiplarga muvofiqligi va xavf darajasi  
bo'yicha tasnifi:**

| <b>SI yo'nalishi (PQ-155, 4-ilova, 9-band)</b>  | <b>Xavf darajasi</b> | <b>Asosiy ta'sir qiladigan modda (Konstitutsiyada)</b> | <b>Tegishli JPK normasi</b>                                                            |
|-------------------------------------------------|----------------------|--------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------|
| Big Data tahlili                                | o'rta                | 31-modda 2- va 3-qismlari                              | JPK 88-modda 5-qism                                                                    |
| Geoaxborot tahlili                              | o'rta                | 31-modda 1- va 2-qismlari                              | JPK 87-modda                                                                           |
| Boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash tizimi | past                 | -                                                      | -                                                                                      |
| Raqamli kriminalistika                          | yuqori               | 28-modda, 29-modda 4-qism                              | JPK 95 <sup>1</sup> -modda 4-q., 204 <sup>1</sup> -modda 3-q., 204 <sup>2</sup> -modda |
| Real vaqtda profayling tahlili                  | o'ta yuqori          | 28-modda, 31-modda 1-3-qismlari                        | - (huquqiy bo'shliq)                                                                   |
| Robototexnika imkoniyatlaridan                  | past-o'rta           | 29-modda 4-qism                                        | JPK 95 <sup>1</sup> -modda 4-qism                                                      |

|                                             |             |                               |                         |
|---------------------------------------------|-------------|-------------------------------|-------------------------|
| ekspert-<br>kriminalistikada<br>foydalanish |             |                               |                         |
| Jinoiy xulq-atvor<br>prognozi               | o'ta-yuqori | 28-modda 1- va 2-<br>qismlari | - (huquqiy<br>bo'shliq) |

Tahlilimizdan kelib chiqib, yettita yo'nalish ichida ikkitasi, ya'ni real vaqtda profayling tahlili va jinoiy xulq-atvor prognozi eng yuqori konstitutsiyaviy xavf darajasiga ega deb hisoblaymiz va ayni paytda JPK bu yo'nalishni hali tartibga solmagan. Bu strategik huquqiy bo'shliq bo'lib, uni bartaraf etish choralari ko'rish lozim.

SI texnologiyalarining kriminalistikaga tatbiq etilishi konstitutsiyaviy huquqlar bilan beshta asosiy ziddiyatni keltirib chiqaradi.

Birinchi ziddiyat, Konstitutsiyaning 28-moddasi birinchi qismiga ko'ra, *“jinoiy sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi”* (Konstitutsiya, 2023, 28-modda 1-qism). Shuningdek, mazkur moddaning ikkinchi qismi *“aybdorlikka oid barcha shubhalar... gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak”*ligini belgilaydi (Konstitutsiya, 2023, 28-modda 2-qism). SIga asoslangan prediktiv tahlil esa, aksincha, shaxsning kelesidagi jinoiy xatti-harakatlari haqida ehtimollik baholarini beradi. Wisconsin v. Loomis (2016) sud ishi bunday “tahdid bahosi”ni hukm tayinlashda hisobga olish mumkinligini tan oldi, lekin ken akademik tanqidga uchradi (Wisconsin v. Loomis, 2016). Fikrimizcha, O'zbekistonning konstitutsiyaviy doirasi ushbu yondashuvga moslashmaydi. 28-modda

aybsizlikning konkret va aniq isbotlanishini talab qiladi, ehtimollikka asoslangan SI bahosini emas.

Ikkinchi ziddiyat, Konstitutsiyaning 29-moddasi 4-qismida *“qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chogʻida foydalanishga yoʻl qoʻyilmaydi”* deyilgan (Konstitutsiya, 2023, 29--modda 4-qism). Mazkur konstitutsiyaviy norma JPK ning 95<sup>1</sup>-modda toʻrtinchi qismi va 204<sup>1</sup>-modda uchinchi qismi orqali protsessual ifodaga ega. Shuning asosida aytishimiz mumkinki, mazkur ziddiyat ikki bosqichda yuzaga keladi. Birinchi bosqichda chuqur oʻrganishga (deep learning) asoslangan SI tilmlari xulosa qabul qilish mantigʻini odam tushunadigan tarzda tushuntira olmaydi. Demak, sudlanuvchi mazkur dalilni samarali ravishda mantiqiy jihatdan tekshira olmaydi va undan oʻzini himoya qila olmaydi. Bu esa oʻz-oʻzidan Konstitutsiyaning 28-moddasi birinchi qismida belgilangan *“oʻzini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar taʼminlanadi”* kafolatiga bevosita zarar yetkazadi. Ikkinchi bosqichda boʻlsa, qonuniy dalil ilmiy uslub mezonlari (takrorlanuvchanlik, izohlanuvchanlik, tekshiriluvchanlik, xato darajasi maʼlumligi) ni qondirishi shart, ammo “qora quti” SI bu mezonlarning hech birini toʻliq qondira olmaydi. ProPublica tashkilotining 2016-yilgi tadqiqoti COMPAS algoritmi qora tanli amerikaliklarni qaytadan jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori deb baholashda noxolis ekanligi empirik isbotlagan (Angwin et al., 2016). Yevropa Ittifoqi AI Actning 13-moddasi yuqori xavfli SI tizimlari uchun “izohlanuvchanlik talabi” ni belgilab qoʻygan boʻlib (Regulation EU 2024/1689, 2024, 13-modda), bu yondashuv Oʻzbekiston Respublikasi huquq tizimi uchun ham qabul qilinishi tavsiya etiladi.

Uchinchi ziddiyat, Konstitutsiyaning 31-moddasi birinchi qismi har bir insonga “shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega boʻlish, oʻz shaʼni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqi”ni kafolatlaydi (Konstitutsiya, 2023, 31-modda 1-qism). PQ-155 konsepsiyasining 9-bandidagi *“aqlli” videokuzatuv tizimlari, real vaqt*

*rejimida shaxslarni aniqlash, fenotipik belgilarni aniqlash texnologiyalari 31-moddaning birinchi qismiga bevosita ta'sir qiladi. Fikrimizcha, bunday texnologiyalardan foydalanish faqat kumulyativ to'rt shart, aniq qonuniy asos, qat'iy sud nazorati, mutanosiblik prinsipi, muddatli cheklov bajarilgandagina mumkin.*

To'rtinchi ziddiyat, Konstitutsiyaning 31-moddasi ikkinchi qismi *"har kimning yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi"* deb belgilangan (Konstitutsiya, 2023, 31-modda 2-qism). Mazkur modda JPK ning 87-moddasi bilan bog'liq bo'lib, u yerda telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish va elektron axborotni dalillar to'plash usuli sifatida belgilangan. Ammo bu harakatlarni amalga oshirish faqat sud sanksiyasi bilan amalga oshirilishi lozim. Biroq SIga asoslangan ommabop xabarlar tahlili qonun va sud orqali emas, balki algoritmik fikrlash orqali amalga oshirilsa, bu konstitutsiyaviy normalarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchi ziddiyat, Konstitutsiyaning 31-moddasi uchinchi qismi har bir shaxsga shaxsiy ma'lumotlari himoyasi va *"qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish"* huquqlarini beradi (Konstitutsiya, 2023, 31-modda 3-qism). Ushbu norma JPK ning 88-moddasi beshinchi qismi va 204<sup>1</sup>-moddasi to'rtinchi qismi bilan amaliyotda ta'minlanadi: *"Ish uchun ahamiyatga ega bo'lmagan elektron ma'lumotlar mavjud bo'lgan elektron jismlar egalariga darhol qaytarib beriladi"* (JPK, 2024, 204<sup>1</sup>-modda 4-qism). SI modellari o'rganadigan ma'lumotlarning manbasi va huquqiy asosi jiddiy masaladir. Tahlilimiz shuni ko'rsatadiki, agar SI noqonuniy yo'l bilan to'plangan ma'lumotlardan o'qitilgan bo'lsa, undan kriminalistik faoliyatda foydalanish 31-modda uchinchi qismini buzgan bo'ladi.

Olib borgan tahlilimiz quyidagi xulosalarga olib keladi.

Birinchidan, PQ-155-sonli qarori O'zbekistonda SI va raqamli kriminalistika integratsiyasining startegik bazasini belgilab beradi, ammo konstitutsiyaviy chegaralar va protsessual mexanizmlar unda aniq ko'rsatilmagan.

Ikkinchidan, konsepsiyaning yetti yo'nalishi konstitutsiyaviy xavf darajasiga ko'ra teng emas. Ularni uch toifaga ajratish va har biri uchun maxsus huquqiy rejim belgilash zarur.

Uchinchidan, SI tatbiqi Konstitutsiyaning 28-moddasi (aybsizlik prezumpsiyasi), 29-moddasi to'rtinchi qismi (qonuniy dalillar) va 31-moddasining bir, ikki, uchinchi qismlari (shaxsiy hayot, xabarlar va ma'lumotlar himoyasi) bilan beshta asosiy ziddiyatni keltirib chiqaradi, ammo JPKning yangi normalari ayrim ziddiyatlarga konkret protsessual javob beradi.

To'rtinchidan, JPKning 204<sup>1</sup>-moddasi uchinchi qismi va 95<sup>1</sup>-moddasi to'rtinchi qismi birgalikda *mutaxassis ishtiroki prinsipini* belgilaydi. Bu qoida sun'iy intellekt tizimlari tomonidan shakllantirilgan dalillarning huquqiy maqomini belgilashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, tegishli mutaxassis ishtirokisiz olingan elektron ma'lumotlar protsessual jihatdan nomaqbul (yaroqsiz) deb topiladi. Binobarin, inson (mutaxassis) nazoratisiz, to'liq avtonom rejimda ishlovchi AI taqdim etgan raqamli tahlil natijalari ham sud uchun qonuniy dalil kuchi xususiyatiga ega bo'lolmaydi.

Yuzaga kelayotgan tizimli chaqiriqlarni bartaraf etish hamda sohadagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, respublikamizda 2027-yilgacha "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi maxsus Qonunni qabul qilish zarur. Mazkur normativ-huquqiy hujjatda Yevropa Ittifoqining ilg'or tajribasiga (*EI AI Act*) tayanib, sun'iy intellekt tizimlarini to'rt toifadagi xavf darajasiga ajratish mexanizmini joriy etish lozim. Bunda huquqni muhofaza qilish sohasida qo'llaniladigan barcha SI tizimlari qat'iy ravishda "yuqori

xavfli” toifaga kiritilishi hamda ular uchun majburiy algoritmik audit, faoliyat shaffofligi va inson nazorati talablari qonun darajasida belgilanishi shart.

Ikkinchidan, Jinoyat-prosessual kodeksiga yangi 88<sup>1</sup>-modda (“Sun’iy intellekt yordamida olingan ma’lumotlardan dalil sifatida foydalanish tartibi”) kiritish tavsiya etiladi. Ushbu yangi norma amaldagi JPKning 95<sup>1</sup> (maqbullik) va 204<sup>1</sup> (elektron ma’lumotlar) moddalarini SI sharoitiga moslashtirgan holda ixtisoslashtirishi zarur. Mazkur moddada SI tizimlari taqdim etgan natijalarni dalil sifatida tan olish uchun beshta majburiy protsessual talab mustahkamlanishi lozim: SI tizimining davlat attestatsiyasidan o’tganligi, uning texnik faoliyatini sertifikatlangan mutaxassis tasdiqlashi, algoritmning izohlanuvchanligi (himoya tomonining tekshira olish imkoniyati uchun), inson-ekspert nazorati hamda majburiy sud nazorati va auditi mavjudligi.

Uchinchidan, PQ-155-sonli qaror bilan tasdiqlangan konsepsiyaga tegishli o’zgartish va qo’shimchalar kiritish lozim. Unga ko’ra, unda belgilangan yetti texnologik yo’nalish konstitutsiyaviy xavf darajasiga ko’ra tasniflanishi va har bir toifa uchun alohida huquqiy rejim belgilanishi kerak. Inson huquq va erkinliklariga bevosita daxldor bo’lgan eng yuqori xavfli yo’nalishlar - prediktiv (oldindan taxmin qiluvchi) profayling hamda jinoiy xulq-atvor prognozi texnologiyalarini amaliyotga joriy etishga vaqtincha moratoriy e’lon qilish maqsadga muvofiqdir.

To’rtinchidan, Bosh prokuratura, Oliy sud va Adliya vazirligi tomonidan “Sun’iy intellekt asosidagi dalillarni maqbul deb topish va baholash bo’yicha qo’shma uslubiy ko’rsatma” ishlab chiqilishi zarur. Mazkur idoralararo hujjat amaldagi JPKning 95<sup>1</sup> va 204<sup>1</sup>-moddalarini raqamli kriminalistika amaliyotida va tergov jarayonida to’g’ri qo’llashning konkret hamda aniq protsessual mexanizmlarini belgilab berishi lozim.

Beshinchidan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-229-sonli qarori asosida tashkil etilgan Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti tarkibida maxsus

“Sun’iy intellekt etikasi va konstitutsiyaviy chegaralar laboratoriyasi” tashkil etilishi lozim. Ushbu laboratoriyaning asosiy vazifasi SI tizimlarini huquqni muhofaza qilish amaliyotiga tatbiq etishdan oldin ularning inson huquqlari va protsessual qonunchilikka ta’sirini majburiy tartibda baholash hamda ekspertlik xulosalarini berishdan iborat bo‘lishi darkor.

Istiqboldagi ilmiy izlanishlarda Konstitutsiyaning muayyan normalari va alohida SI texnologiyalari o‘rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurroq o‘rganish talab etiladi. Shu bilan birga, milliy sud amaliyotida sun’iy intellekt vositasida olingan dalillarga oid dastlabki keyslar (sud ishlari) yuzaga kelishi bilan, ularni JPKning 95<sup>1</sup> va 204<sup>1</sup>-moddalari prizmasida chuqur ilmiy-praktik tahlil qilish raqamli kriminalistika fanining kelajakdagi muhim yo‘nalishiga aylanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR Ro‘YXATI / REFERENCES**

1. Angwin, J., Larson, J., Mattu, S., & Kirchner, L. (2016, May 23). Machine bias: There’s software used across the country to predict future criminals. And it’s biased against blacks. *ProPublica*.  
<https://www.propublica.org/article/machine-bias-risk-assessments-in-criminal-sentencing>
2. Casey, E. (2011). *Digital evidence and computer crime: Forensic science, computers, and the internet* (3rd ed.). Academic Press.
3. Council of Europe. (2024). *Framework convention on artificial intelligence and human rights, democracy and the rule of law* (CETS No. 225).  
<https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list?module=treaty-detail&treaty-num=225>
4. INTERPOL & UNICRI. (2023). *Toolkit for responsible AI innovation in law enforcement*. INTERPOL. <https://www.interpol.int/>

5. National Institute of Standards and Technology. (2023). *Artificial intelligence risk management framework (AI RMF 1.0)* (NIST AI 100-1). U.S. Department of Commerce. <https://doi.org/10.6028/NIST.AI.100-1>
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (1994, sentabr 22). O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi [keyingi o‘zgartirishlar bilan, jumladan 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli Qonun bilan]. Lex.uz. <https://lex.uz/>
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2023, aprel 30). O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [umumxalq ovoz berishida qabul qilingan tahrirda]. Lex.uz. <https://lex.uz/>
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2024, noyabr 21). O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘RQ-1003-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, noyabr 30). *Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to‘g‘risida* (PQ-381-sonli qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/>
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024, iyun 21). *Raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida* (PQ-229-sonli qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/>
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025, yanvar 22). *Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida* (PQ-17-sonli qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/>

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025, aprel 30). *Ichki ishlar organlari tizimini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida* (PQ-155-sonli qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/>
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026, mart 10). *O‘zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida* (PF-38-sonli Farmon). Lex.uz. <https://lex.uz/>
14. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act), 2024 O.J. (L 1689). <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj>
15. Surden, H. (2019). Artificial intelligence and law: An overview. *Georgia State University Law Review*, 35(4), 1305–1337.
16. UNESCO. (2021). *Recommendation on the ethics of artificial intelligence*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000381137>
17. Wisconsin v. Loomis, 881 N.W.2d 749 (Wis. 2016).
18. Završnik, A. (2020). Criminal justice, artificial intelligence systems, and human rights. *ERA Forum*, 20, 567–583. <https://doi.org/10.1007/s12027-020-00602-0>